



## O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING JAHON TAJRIBASIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

**Nabiyeva Umeda Valizoda**

*Samarqand iqtisodiyot va servis  
instituti Iqtisodiyot fakulteti talabasi*  
E-mail: [umedanabiyeva14@gmail.com](mailto:umedanabiyeva14@gmail.com)  
Telefon raqami: +998970306205

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jahon tajribasi asosida O‘zbekistonda zamonaviy imkoniyatlardan foydalangan holda ishsiz, uyushmagan aholini ish bilan ta‘minlash va buning natijasida kambag‘allikni qisqartirish, aholi daromadini ko‘paytirish orqali yashash sharoitini yaxshilash uchun xulosa va takliflar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** kambag‘allik, mamlakat, aholi, ko‘rsatkich, ishsizlik, ijtimoiy yordam*

### **Kirish.**

Aholi turmush darajasini oshirish, ish bilan band qilish, zamonaviy iqtisodiyotda jahon mamlakatlarining asosiy vazifasiga aylangan. Mana shunday vazifalar qatorida kambag‘al aholi sonini qisqartirishda jahonda muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Afrika davlatining “**Harambee**” hamda “**GiveDirectly**”, Xitoyda “**Xitoy tajribasi**” dasturlari amalga oshirilgan. O‘zbekistonda esa ijtimoiy himoya dasturlari - «**Ijtimoiy reyestr**» – «**Temir daftar**», «**Ayollar daftari**» va «**Yoshlar daftari**». Ushbu dasturlarning barchasi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamining yashash sharoitini yaxshilash uchun ishlab chiqilgan.

### **Tahlil.**

Aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida rivojlanayotgan davlatlarda amalga oshirilgan muvaffaqiyatli xorijiy tajribalardan quyidagi loyihalarini ko‘rib chiqish mumkin. Masalan, Janubiy Afrika Respublikasida amalga oshirilgan «**Harambee**» loyihasi ijtimoiy yoshlar bandligini ta‘minlashga ko‘maklashishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ushbu dastur sun‘iy intellekt yordamida kasbiy-malakaviy moslikni aniqlab, ish izlovchilar bazasini shakllantiradi va ularga turli me‘yorlarga asosan tegishli mos bo‘sh ish o‘rnini taklif qiladi. «Harambee» qisqa davr ichida asosan xususiy va norasmiy sektorda yoshlarni ish bilan ta‘minlagan. Sun‘iy intellekt asosida ishlovchi kasbiy-malakaviy moslik bo‘yicha dasturning O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi norasmiy sektorda band bo‘lgan, ayniqsa, bir martalik ish bozorlaridagi ish qidiruvchilarning bandligini ta‘minlashga va ularni ijtimoiy himoya bilan qamrab olishga imkon beradi. Dastlabki bosqichda sun‘iy intellekt texnologiyalarini mobil qurilmalardan foydalanish mumkin bo‘lgan dasturlar orqali taklif qilib, norasmiy sektordagilarni kunlik va mavsumiy ishlarga jalb qilish, ularning bandligini ta‘minlash mumkin.



«GiveDirectly» dasturi esa bir qator Osiyo va Afrika davlatlarida chekka hududlarda yashovchi kambag'al oilalarga to'g'ridan-to'g'ri moddiy-pul mablag'larini berishni ko'zda tutadi. Dastur orqali chekka hududlarda yashovchi ehtiyojmand kambag'al oilalarni aniqlashda asosiy mezonlarga qo'shimcha ravishda sun'iy yo'ldosh orqali yig'ilgan ma'lumotlardan foydalaniladi. Dasturlashtirilgan sun'iy intellekt kambag'al oilalar xonadonlarining qanday ashyolardan qurilganini tahlil qiladi va moddiy sharoitlarini baholaydi. Sun'iy yo'ldosh orqali yig'ilgan tasvirlar va navigatsiya ma'lumotlari ijtimoiy himoya dasturining ma'lumotlar bazasiga kiritilib, ulardan birinchi navbatda sun'iy intellekt faoliyatini ta'minlashda, ikkinchidan esa ijtimoiy himoyaga muhtojlik mezonlarini belgilash va aniqlashda foydalaniladi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda ham jami aholining 14 foizi kambag'aldir. Bu esa holatini o'rganish aniq chora-tadbirlarni talab etadi. Bunda rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, uni tahlil qilish o'ta muhim masala hisoblanadi. Shuni e'tiborga olish lozimki, kambag'allik holatini to'liq tugatib bo'lmaydi, biroq uning darajasi va hajmini iloji boricha kamaytirish mumkin. Bu esa, davlatning kambag'allikni negativ ta'sirini kamaytirish bo'yicha choralarni doimiy ravishda olib borishini taqazo etadi. Kambag'allikning ijtimoiy oqibatlarini muhokama qilish, shaxsda kambag'allikka moyillikni oldini olish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

2021-yil 10-iyun kuni mamlakatimizda boshlangan Barqaror rivojlanish maqsadlari haftaligi doirasida "O'zbekistonda kam ta'minlanganlikni qisqartirishdagi dolzarb vazifalari: muammolar va ularni hal qilish yo'llari" mavzusida davra suhbat bo'lib o'tdi. Davra suhbatida Oliy Majlisi Senati Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi raisi E.Gadoyev, BMT tomonidan har biri aniq va manzilli vazifalarni o'z ichiga olgan "2030-yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish maqsadlari" qabul qilingani va uning Prezidentimiz Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Ma'muriy islohotlar doirasida bu sohalarga mas'ul vazirlik tashkil etilib, barcha huquqiy-tashkiliy asoslar yaratildi. Yurtimizda ilk bor minimal iste'mol xarajatlari qiymati joriy etildi. Aholi bandligini ta'minlash uchun oilaviy tadbirkorlikka 15 trillion so'm imtiyozli kredit va subsidiyalar, dehqonchilik uchun 200 ming gektar yer ajratildi. Shu davrda 300 mingga yaqin tadbirkorlik subyekti tashkil qilinib, 20 mingta korxonalar faoliyati kengaytirildi. O'tgan yili 1 million nafar aholi kambag'allikdan chiqarildi. Yaqinda qabul qilingan Konstitutsiyamizda ham kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat o'ziga majburiyatlar oldi.

Salohiyatli tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlab, yangi ish o'рни yaratishga rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqildi. Buning uchun ular bilan malakali ishchi tayyorlash bo'yicha shartnoma tuziladi. Ya'ni, korxonalarda ko'plab "amaliy



monomarkaz”lar tashkil qilinmoqda. Davlat bunga zarur mablag‘lar ajratish bilan birga, infratuzilma, kredit, soliq va boshqa masalalar bo‘yicha yengilliklar bermoqda. Bundan shu ko‘rinadiki tadbirkor kambag‘al aholini daromadli ish bilan ta‘minlaydi. Joriy yilda oilaviy tadbirkorlikka 13 trillion so‘m kredit va 1,5 trillion so‘m subsidiyalar ajratilayapti. Shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta‘minlash bo‘yicha 37 turdagi subsidiyalar mavjud. Lekin ularni ajratish shartlari oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, loyihaning o‘zini o‘zi oqlash muddatidan qat‘iy nazar, barcha uchun deyarli bir xil. Shu bois kredit va subsidiyalarni har bir kambag‘al oilaga alohida yondashuv asosida taqdim etish taklifi bildirildi. eshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-mart kungi 145-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomning 2-bob, 4-bandiga ko‘ra, «Ayollar daftari»ga 30 yoshdan oshgan quyidagi toifadagi xotin-qizlar kiritilishi belgilangan.

Unga ko‘ra, “Ayollar daftariga” ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar, bandligi ta‘minlanmagan, ishlash istagida bo‘lgan, daromad manbaiga ega bo‘lmagan, shu jumladan, mehnat qilish qobiliyatini qisman yo‘qotgan, biroq ishlash ishtiyoqi bo‘lgan xotin-qizlar; boquvchisini yo‘qotgan ehtiyojmand xotin-qizlar, boquvchisi bo‘lmagan, qo‘shimcha moddiy yordamga muhtojlar; ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo‘lgan xotin-qizlar, mehnatga qobiliyatsiz, o‘zgalar parvarishiga muhtojlar; uy-joyini ta‘mirlashga muhtoj I guruh nogironligi bo‘lgan xotin-qizlar, mehnat qilish qobiliyatini butunlay yo‘qotgan, yolg‘iz yashaydigan, uy-joyini ta‘mirlash imkoniyati bo‘lmaganlar; noturar joylarda istiqomat qilayotgan, o‘zining yoki birgalikda yashovchi oila a‘zolarining nomida turar joy mavjud bo‘lmagan xotin-qizlar, ma‘muriy binolar, yerto‘lalar va istiqomat qilish maqsadlariga mo‘ljallanmagan boshqa binolarda yolg‘iz yoki oila a‘zolari bilan birgalikda yashayotgan, shuningdek, doimiy yashash uchun turar joyi bo‘lmagan holda uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtojlar; qaramog‘ida bir va undan ortiq I yoki II guruh nogironligi bo‘lgan bolalari mavjud yolg‘iz ayollar; tibbiy himoyaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar, o‘zi va birgalikda yashovchi oila a‘zolari og‘ir ijtimoiy vaziyatda bo‘lgan, surunkali yoki og‘ir nogironlikka olib keluvchi kasallikka chalingan, nogironlik guruhi belgilanmagan, yetarli daromad manbaiga ega bo‘lmaganlar; huquqiy yordam olishga muhtoj xotin-qizlar, huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to‘g‘risida murojaat qilganlar hamda psixologik maslahatga muhtoj xotin-qizlar, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan, ijtimoiy muammolari mavjud xotin-qizlar kiritilishi belgilangan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 312-son qarorining 2-ilovasi bilan «Yoshlar daftarini» yuritish orqali yoshlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tartibi



to'g'risida"gi Nizomi tasdiqlangan. Ushbu Nizomning 2-bob 4-bandiga ko'ra, «Yoshlar daftari»ga doimiy yoki vaqtincha yashash joyi bo'yicha o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan (o'ttiz bir yoshga to'lmagan) quyidagi toifadagi: oila a'zosi «Temir daftar», «Ayollar daftari» yoki «Ijtimoiy himoya yagona reestri»ga kiritilgan; ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan; boquvchisini yo'qotgan, yetim yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan; o'ziga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan; o'z galar parvarishiga muhtoj bo'lgan ishga layoqatsiz; I yoki II guruh nogironligi bo'lgan; farzandida I yoki II guruh nogironligi bo'lgan; jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan; ota-onasidan birida I yoki II guruh nogironligi bo'lgan, ikkinchisi esa ish faoliyatini to'xtatgan holda bemorga qarashga majbur bo'lgan yoxud ota-onasining har ikkisida I yoki II guruh nogironligi bo'lgan; yuzaga kelgan holatlar sababli og'ir turmush sharoitida qolgan; zo'ravonlik va ekspluatatsiya, tabiiy ofatlar, halokatlar, yong'inlar va boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatida hayotiga, sog'lig'iga, mulkiga zarar yetgan; «Mehribonlik» uyi, Bolalar shaharchasi yoki oilaviy bolalar uyida tarbiyalangan; haq to'lanadigan ishga yoki ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan mashg'ulotga ega bo'lmagan; davolanishga muhtoj bo'lgan bemor yoshlar; jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan; muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan; psixologik maslahatga muhtoj; nikohi qayd etilganiga uch yildan oshmagan yosh oila; dehqonchilik yoki tomorqa xo'jaligini yuritayotgan, shuningdek yosh tadbirkor yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tgan yoshlar kiritiladi.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-apreldagi 250-son qarorining 1-ilovasi bilan Vaqtinchalik tartiblar tasdiqlangan. Ushbu vaqtincha tartiblarning 2-bob 4-bandiga asosan, «Temir daftarlar»ga quyidagi toifaga kiruvchi shaxslar jumladan: kam ta'minlanganlar; nogironligi bo'lganlar; ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar; yakka-yolg'iz keksalar; doimiy ishsiz fuqarolar hamda karantin tufayli ishsiz qolgan fuqarolar kiritilishi belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» va «Temir daftarlar»ni yuritishdan ko'zlangan maqsad, ushbu toifaga kiritilgan shaxslarni davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan birida belgilangan, aholi bandligini ta'minlash va real daromadlarini, xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish orqali - kambag'allikni qisqartirish maqsadlariga hamohangligini qayd etib o'tildi.

Ana shunday islohotlar natijasida, O'zbekistonda 2023-yilda kambag'allik darajasi 3,1 foizga qisqarib, 11 foizni tashkil etdi. Kambag'allikning pasayishi barcha viloyatlarda qayd etilgani ma'lum qilindi.



Ma'lumki, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha Xitoyning tajribasi e'tiborga molik. Buni o'rganish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish uchun yaqinda mamlakatimiz delegatsiyasi Xitoyda bo'lib qaytdi. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga u yerdan ekspertlar jalb qilindi. Endi Xitoy tajribasi asosida har bir viloyatda bittadan tumanni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha alohida dastur amalga oshirilishi belgilandi. Bunda kambag'allik yuqori bo'lgan tumanlarda yo'l-transport, elektr, aloqa va turizm infratuzilmasini yaxshilash, kichik va o'rta shaharlarni rivojlantirish, mahallalarni sanoatlashtirishga e'tibor qaratiladi. Kambag'allikni kamaytirish maqsadida O'zbekiston "Xitoy tajribasi"dan foydalanmoqda. "Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha erishilgan yutuqlarni saqlab qolish uchun Xitoy kambag'allikdan qutulgan hududlarda endogen rivojlanishga erishishga ko'proq e'tibor qaratadi va qishloqlarni jonlantirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qat'iy choralar ko'radi. Maqsadimiz umumiy farovonlik va yuqori sifatli rivojlanishga erishish, shu jumladan qishloqni jonlantirish strategiyasi orqali beshta asosiy yo'nalish: sanoatni rivojlantirish, inson kapitali, madaniyat, ekologik muhit va mahalliy boshqaruv". Hisobotga ko'ra, Xitoyning qashshoqlikni kamaytirishga bo'lgan yondashuvi ikki ustunga asoslangan. Birinchisi, yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochish va o'rtacha daromadlarni oshirish uchun keng ko'lamlı iqtisodiy transformatsiya edi. Ikkinchisi, doimiy kambag'allikni yumshatish uchun maqsadli yordam zarurligini tan olish edi; yordam dastlab geografiya va imkoniyatlarning etishmasligi tufayli noqulay hududlarga, keyinchalik qulay hududlarga berilishi lozim.

### **Xulosa.**

Ushbu jarayon, dunyo bo'ylab muhitni saqlash, insonlarga foyda keltirish va samarali resurs ishlatishga yo'l ochmoqda. Xitoy tajribasidan boshqa mamlakatlar uchun bir qator saboqlarga ishora qiladi, jumladan, ta'limga e'tibor qaratish, tashqi tomonga yo'naltirish, infratuzilmaga barqaror davlat investitsiyalari va raqobatni qo'llab-quvvatlovchi tuzilmaviy siyosat.



## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Javohir, S., & Xadjaeva, F. (2024). ASSESSMENT OF THE EFFECTIVENESS OF STATE BUDGET DISTRIBUTION. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 2(1), 239-242.
2. Нозимов, Э. А., & Шодиев, Ж. (2023). СТРАХОВАНИЕ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ И ЕГО РАЗВИТИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ. *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development*, 1(2), 14-18.
3. Ашурова, О. Ю., & Шодиев, Ж. (2024). ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ИНВЕСТИЦИОННОГО КЛИМАТА В УЗБЕКИСТАНЕ. *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development*, 2(4), 67-73.
4. Ашурова, О. Ю., & Шодиев, Ж. (2024). РИСКИ И ВЫЗОВЫ ИНВЕСТИРОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 2(4), 66-70.
5. Shodiev, J., & Zarina, R. (2024). SOCIO-ECONOMIC CONSEQUENCES OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 2(1), 200-202.
6. Нозимов, Э. А., & Шодиев, Ж. (2023). ОПТИМИЗАЦИЯ СТРАХОВАНИЯ ЗДОРОВЬЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(2), 1-4.
7. Shodiyev, J., & SEYRANOVNA, A. (2023). SOURCES OF FINANCING OF INVESTMENT ACTIVITIES FROM THE STATE. *Analytical Journal of Education and Development*.